Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



FOND BOZORLARINING TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich

Toshkent xalqaro universiteti Kimyo universiteti, mustaqil tadqiqotchi



O'KTAM SHAMSIYEV

Annotatsiya: Maqolada xorijiy davlatlarda fond bozori rivojlanishi va tendensiyalari tadqiq etilgan. Shuningdek, Niderlandiya, Amerika, Angliya, Fransiya, Germaniya fond bozorlarining tashkil etilishiga oid rivojlanish evolyutsiyasiga oid ma'lumotlar tahlil qilingan. Maqola tahlillari asosida respublikamizda fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: fond bozori, moliyaviy aktiv, qimmatli qog'ozlar, pul agregati, fond bozori infratuzilmasi, investitsiya, fyuchers operatsiyalari, opsiya, repo operatsiyalari.

Abstract: The article examines the development and trends of the stock market in foreign countries. Also, data on the evolution of the development of the organization of stock markets in the Netherlands, America, England, France, Germany and Austria were analyzed. Based on the analysis of the article, suggestions and recommendations have been developed regarding the development of the infrastructure of the stock market in our republic.

Key words: stock market, financial asset, securities, monetary aggregate, stock market infrastructure, investment, futures operations, option, repo operations.

Annotatsiya: В статье рассматриваются развитие и тенденции фондового рынка в зарубежных странах. Также были проанализированы данные об эволюции развития организации фондовых рынков в Нидерландах, Америке, Англии, Франции, Германии и Австрии. На основе анализа статьи разработаны предложения и рекомендации по развитию инфраструктуры фондового рынка в нашей республике.

Klyuchevye slova: фондовый рынок, финансовый актив, ценные бумаги, денежный агрегат, инфраструктура фондового рынка, инвестиции, фьючерсные операции, опцион, операции репо.

KIRISH

Moliyaviy globallashuv sharoitida fond bozori muhim o'ringa ega. Buni quyidagi ob'ektiv fakt orqali isbotlashimiz mumkin, ya'ni rivojlangan davlatlarda korporativ tuzilmalar moliyaviy aktivlarining katta qismi qimmatli qog'ozlarda mujassamlashgan. Qimmatli qog'ozlar, shu jumladan, aksiyalarning bozor kapitallashuvi miqdori jahonda YaIM hajmidan ikki barobardan ortiq. Shuningdek, M2 pul agregati (naqd pullar, banklarning joriy va muddatli hisobvaraqlaridagi mablag'lar) hajmidan uch marotaba ko'p.

Bundan tashqari, jahonda qimmatli qog'ozlar bozori samarali investitsiya mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Bu orqali davlat va korporativ tuzilmalar yiriy iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga ega dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mablag'larni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Fond bozorining paydo bo'lishining ob'ektiv sharti moliyaviy resurslarni jalb qilish edi. Bunda emissiya faoliyatining muntazamligi fond bozori, xususan qimmatli qog'ozlar bozorining mavjudligining asosiy shartidir. Ushbu bozorni rivojlantirishning yana bir ajralmas sharti qimmatli qog'ozlar chiqarilishining ko'lamini bo'lib, buning natijasida ular investorlarning keng doirasi, ham jismoniy shaxslar, ham yuridik shaxslar orasida keng tarqaladi. Qimmatli qog'ozlarning o'zi (birinchi qimmatli qog'oz veksel bo'lgan) va veksel yarmarkalari ko'rinishidagi birinchi fond bozorlari o'rta asrlarda Italiyaning shaharlarida paydo bo'lgan. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar bozori haqidagi zamonaviy g'oyalarga mos keladigan fond bozori davlatlar yirik miqyosda muntazam qarz olishni boshlagandagina va birinchi aksiyadorlik jamiyatlari paydo bo'lgandagina shakllangan.



M. Vsyakix fikricha, “fond bozorining samarali infratuzilmasini yaratish tamoyillari sirasiga quyidagilarni kritish mumkin: axborot, ochiqlik, keng ishtirokchilar uchun ochiqlik, monopoliyadan chiqarish, nomarkazlashtirish, qimmatli qog’ozlarni hisobga olish, saqlash, yetkazib berish huquqlarini belgilash, investorlar huquqlarini himoya qilish tizimini shakllantirish, kliring tizimlarini markazlashtirish, birja faoliyatini konsolidatsiyalash va standartlashtirish, alohida institutlar faoliyatini tartibga solish tizimini takomillashtirish orqali infratuzilma tashkilotlari ishini optimallashtirish orqali infratuzilma tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish kabilardir ^[1]”.

Fond bozori infratuzilmasini rivojlantirishda bozor instrumentlari ahamiyatini birlamchi ekanligini ta’kidlagan Moorad Choudhry, Didier Joannas, Gino Landuyt, Rod Pienaar, Richard Pereira kabi olimlarning “Capital market: instruments analysis and valuation” nomli kitobida ko’rsatilishicha, kapital bozorining segmentlaridan bo’lgan – pul bozorida pulning vaqt qiymati va diskont stavkasini belgilovchi omillar tahlil etilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishida diskont koeffitsiyenti hisoblab chiqarishning B-spline usuli, uzluksiz vaqt davomida obligatsiyalar narxini belgilash, inflyatsiya orqali indekslangan obligatsiyalarning qiymatini hisoblash kabilar atroflicha yoritib berilgan ^[2].

R. Xo’jamurodov “O’zbekiston fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish: muammolar va yechimlar” mavzusida olib borgan tadqiqotlarida quyidagilarni alohida qayd etgan: “O’zbekistonda fond bozori yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo’sh turgan pul mablag’larini investitsiyalarga yo’naltiradi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga transformatsiyalanishiga imkoniyat yaratadi. O’zbekistonda qimmatli qog’ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlari bo’yicha barcha operatsiyalar fond birjasi elektron savdo tizimi hamda uyushgan va uyushmagan savdo tizimi orqali amalga oshiriluvchi infratuzilma shakllantirildi. Biroq qimmatli qog’ozlarning ikkilamchi bozorini to’la ishga tushirish, fond birjasida aksiyalar qiymatini muntazam e’lon qilib borish, aholida aksiyalar sotib olishga ishtiyoqi va intilishini oshirish, aksiyalarning haqiqiy qimmatli qog’ozga aylantirish hamda aksiyadorlar uchun muhim daromad manbai bo’lishi ta’minlanmaganligi, fond bozori infratuzilmasi faoliyati samarali yo’lga qo’yilmaganligi fond bozorini rivojlanish imkonini bermayapti. Shuningdek, mamlakatda fond bozori infratuzilmasining iqtisodiyotdagi roli past bo’lib, davlatning makroiqtisodiy va faol investitsiya siyosati talablariga to’liq javob bermaydi. Chunki, fond bozori rivojlangan mamlakatlardagidek, o’zining bosh funksiyasi – yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo’sh pul mablag’larini investitsiyalarga yo’naltirish, ya’ni, barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlash maqsadida uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qila olmayapti. Ushbu holatlar O’zbekistonda fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda ^[3]”.

Rossiya Federatsiyasi Banki tomonidan qayd etilishicha, “Fond bozori va uning infratuzilmasi – bu moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalarga xizmat ko’rsatadigan, bunday operatsiyalar bo’yicha nazorat va hisob-kitoblarni amalga oshiradigan, moliyaviy aktivlarga bo’lgan huquqlarni hisobga oladigan va boshqaradigan, shuningdek, moliya bozorining samarali ishlashi uchun zarur bo’lgan ma’lumotlarni to’playdigan, saqlaydigan va taqdim etadigan maxsus tashkilotlar ^[4]” hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola doirasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishda statistik kuzatuv, induksiya va deduksiya, verbal sharhlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kooperativ tuzilma va aksiyador munosabatlari ko’p umumiy moliyaviy munosabatlarga qurilgan. Jumladan, birinchi aksiyadorlik jamiyatlari an’anaviy ravishda Moskva, Levant, Boltiqbo’yi, Sharqiy Hindiston kompaniyalari, shuningdek, XVI asrlarda Angliyada tashkil etilgan Niderlandiya Birlashgan Sharqiy Hindiston kompaniyasi hisoblanadi ^[5].

Tadqiqotlardan ma’lumki, aksiyadorlik jamiyatlari paydo bo’lgunga qadar korporatsiyalarning dastlabki shakllari aksiyalar chiqarmagan. Dastlab, jamiyat a’zolari savdo ekspeditsiyalari tugatilgandan so’ng qaytariladigan aksiyalarni muomalaga kiritdilar. Shunga ko’ra, kompaniya faoliyatini davom ettirish uchun kapitalni doimiy ravishda yangilab turish kerak edi. Keyinchalik aksiyalar egasining egalik huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog’ozlar bilan almashtirildi, ularga dividendlar muntazam ravishda to’lanadigan bo’ldi (ba’zi hollarda tovarlarda). Dividendlarni to’lash yalpi foydani taqsimlash o’rnini egalladi. Keyinchalik kapitalni doimiy ravishda yangilab turish tamoyili bekor qilindi (o’rta asrlar shirkatiga o’xshash) va aksiyalar egasiga ularni boshqa shaxslarga sotish imkoniyati berildi.

Fond bozorining ilk ko’rinishlari sifatida birinchi birjalar XVI asrda paydo bo’lgan: ular Antverpen va Lion birjalari bo’lib, ammo ushbu asrda o’z faoliyatini to’xtatgan. Birinchi klassik fond birjasi, hanuzgacha faoliyat yuritib, keladi. Bu Amsterdam fond birjasi bo’lib, u 1611-yilda ish boshlagan. Shuning uchun mamlakatdagi tarixan birinchi fond bozori hisoblanadi. 1913-yilgacha Amsterdam fond birjasi universal savdo maydonchasi



sifatida uning binolarida nafaqat qimmatli qog'ozlar, balki turli xil tovarlar va boshqalar ham sotilgan. Aynan shu birjada qimmatli qog'ozlar savdosining barcha zamonaviy vositalari va shakllari birinchi marta keng tarqaldi:

- fyuchers operatsiyalari;
- opsionlar;
- repo operatsiyalari va boshqalar.

Niderlandiya fond bozori. Dastlab, birjalarga kirish bepul bo'lib, istalgan kishi kelib, istalgan kishi bilan shartnoma tuzishi mumkin edi. Uzoq vaqt davomida Amsterdam fond birjasida asosan Niderlandiya hukumati Amsterdam shahri ma'muriyati va boshqa ba'zi shaharlarning obligatsiyalari bilan savdo qildi. Uzoq vaqt davomida aksiyalarning muntazam savdosi mamlakatning birinchi aksiyadorlik jamiyati – Birlashgan Sharqiy Hindiston kompaniyasining (1602-yilda tashkil etilgan) qimmatli qog'ozlari bilan ta'minlangan. Amsterdam fond birjasida aksiyalari sotila boshlagan ikkinchi kompaniya 1621-yilda tashkil etilgan G'arbiy Hindiston kompaniyasi bo'ldi. XVIII asrda emitentlar qatoriga Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi, Janubiy dengiz kompaniyasi, Angliya banki va Yevropa davlatlarining hukumatlari kirgan. 1747-yilda Amsterdam fond birjasida 40 dan ortiq turdagi qimmatli qog'ozlar sotilgan. Yevropa fond birjalarining savdo aylanmasida qimmatli qog'ozlar faqat XIX asrning ikkinchi yarmida faollashgan. Bundan oldin savdo asosan davlat va shahar obligatsiyalari bilan amalga oshirilgan. Buning sababi shundaki, aksiyadorlik jamiyati korxonaning tashkiliy shakli sifatida faqat XIX asr oxirida tashkil etilgan. Niderlandiya fond bozori bilan parallel ravishda ingliz qimmatli qog'ozlar bozori ham rivojlangan. U yerda dunyoda birinchi aksiyadorlik jamiyati – Moskva kompaniyasi paydo bo'ldi, u 1553-yilda Ivan Terribledan Rossiya bilan savdo qilish monopoliyasini oldi. Ingliz bozorida birinchi erkin sotiladigan aksiyalar ingliz Ost-Indiya kompaniyasi (1600-yilda tashkil topgan) va Niderlandiya Birlashgan Ost-Hind kompaniyasining qimmatli qog'ozlari bo'ldi. Aksiyalari ingliz bozorida ham sotilgan Gudson's Bay kompaniyasi (1668-yilda tashkil etilgan) bugungi kunda ham mavjud hisoblanadi ^[5].

Angliya fond bozori. Ingliz fond bozori 1773-yilda tashkil topgan birinchi ixtisoslashgan fond birjasi Angliyada paydo bo'lgan. City biznes mavzesidagi qahvaxonada turli moliyaviy vositalar bilan savdo qiluvchi londonlik brokerlar o'z bizneslari uchun maxsus xonani ijaraga olgan. Keyinchalik ushbu bino "London fond birjasi" deb nomlandi va birinchi marta bu nomda kombinatsiyalangan fond birjasi faoliyatini boshlagan. Dastlab London fond birjasiga a'zolik bepul bo'lgan. Har kim ma'lum miqdorda pul to'lagan holda kim oshdi savdosida qatnashishi mumkin bo'lgan. 1802-yilda birja hozirda joylashgan Angliya banki yaqinidagi yangi binoga ko'chib o'tgan. Shu davrdan fond birjasida yangi qoidalar qabul qilindi, unga ko'ra faqat uning a'zolari birjada savdo qilishlari mumkin, deb belgilab qo'yilgan. Dastlab ular 550 kishini tashkil etgan. London tezda fond bozorida etakchi o'rinni egalladi. XIX asrning o'rtalariga qadar London fond birjasida asosan davlat obligatsiyalari sotilgan. Ko'p jihatdan bu holat 1720-yildan XIX asrning o'rtalariga qadar faoliyat olib borgan aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etishning qonunchilik cheklovi tufayli yuzaga keldi. Ushbu cheklov XVIII asrning boshlarida aksiyadorlik jamiyatlarining ommaviy tashkil etilishi tufayli kiritilgan bo'lib, ularning orqasida yashiringan ba'zi moliyaviy piramidalar ta'minlanmagan aksiyalar emissiyasini tashkil etgan. 1720-yilda Angliyada Bubble qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra, aksiyadorlik shaklidan ajralmagan holda "cheklangan javobgarlik" maqomi faqat parlamentning maxsus akti asosida olinishi mumkin bo'ldi. 1708-yildan 1826-yilgacha Angliya banki bundan mustasno hisoblangan. Bu borada ushbu davrda ham banklar uchun aksiyadorlik huquqi saqlanib qolingan. Bank muassasalari yakka tartibdagi korxonalar yoki shirkatlar shaklida faoliyat yuritishi ham mumkin edi. XIX asrning ikkinchi yarmining boshlarida aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish bo'yicha barcha taqiqlar bekor qilingan. Bu, o'z navbatida, mamlakatda fond bozori rivojlanishida muhim qaror vazifasini o'tagan. Afsuski, London fond birjasi paydo bo'lishining dastlabki yillarida uning ish va savdo qoidalari haqida kam ma'lumot saqlanib qolganligi bos batafsil tadqiqot qilish imkonsiz.

Fransiya fond bozori. Fransiyada qimmatli qog'ozlar bo'yicha "qimmatli huquqlar" bilan bog'liq birinchi ayirboshlash operatsiyalari 1540-yilda Lionda paydo bo'lgan. Ammo u uzoq davom etmagan. 1724-yilda Parijda vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish uchun maxsus bino qurildi va u birja deb nomlangan. Zamonaviy Parij birjasining prototipiga aylangan. Ushbu davrdagi birja ishi birja faoliyatini olib borishning zamonaviy tamoyillariga unchalik mos kelmasdi, chunki birinchi navbatda narxlarni ommaviy ravishda e'lon qilish amaliyotidan foydalanilmagan. Faqatgina 1777-yilga kelib, qimmatli qog'ozlar savdosi uchun maxsus platforma ajratildi va ochiq narxni e'lon qilish qoidasi joriy etildi. Fransiya inqilobidan bir necha yil o'tgach, 1793-yilda fond birjasi yopildi va 1801-yilda Napoleon hokimiyat tepasida bo'lganida qayta ochildi. Shu yili Fransiya imperatori 1826-yilda hozirgi Parij fond birjasi binosini qurish uchun farmon chiqargan ^[5]. Dastlab birjada asosan veksellar va XIX asrning o'rtalaridan boshqa qimmatli qog'ozlar ham Parij fond birjasida savdolari amalga oshirilgan. Fond bozorida savdolar 1639-yildan shunday nomlana boshlagan professional ayirboshlash agentlari tomonidan amalga oshirilgan (oldin ular "pul almashtiruvchi" deb atalgan).

Amerika fond bozori. Amerikada birinchi fond birjasi 1791-yilda Filadelfiya shtatida tashkil etilgan. Bir yil o'tgach, Amerika Qo'shma Shtatlaridagi eng mashhur fond bozori – Nyu-York fond birjasi ish boshlagan. "1972-yil may oyida Manxettenning janubiy qismidagi qahvaxonalarda savdo qilgan mahalliy brokerlar Uoll-stritda




to'planishdi va savdo shartnomasini (Buttonwood kelishuvi) imzoladi ^[6]. Uning qoidalari faqat birja a'zolari o'rtasida bitimlarni amalga oshirishni nazarda tutgan. Mazkur fond birjasi savdolarida ruxsat etilgan komissiya to'lovi faqat 1975 yilda bekor qilingan. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi Nyu-York fond birjasidagi savdolarining birinchi o'n yilliklari birinchi navbatda davlat obligatsiyalari savdosi amalga oshirilgan. Faqat Shimol va Janub o'rtasidagi fuqarolar urushidan so'ng, aksiyalar bitimlarning asosiy ob'ektiga aylanganligini ta'kidlash o'rindir. Nyu-York fond birjasi korporativ Amerikaning yuksalishida muhim rol o'ynagan, deyish to'g'ri, aslida. Moliya va sanoat imperiyalari Amerika iqtisodiyotining asosini tashkil etgan Vanderbilt, Rokfeller, Morgan kabi kapital olamining mashhur kishilari aynan shu platformada o'z boyliklarini to'plashgan.

Germaniya fond bozori. "Germaniyada birinchi fond birjasi Frankfurtida tashkil etilgan. 1585-yilda mahalliy savdogarlar turli valyutalar uchun qat'iy belgilangan kurslardan foydalanishga kelishib olgan ^[7]". XVIII asr oxirigacha tangalar va veksellar Frankfurt fond birjasida sotilgan. Davlat obligatsiyalari bilan muntazam savdo qilish ushbu asrning eng oxirida boshlangan. XIX asr oxirida mamlakat birlashgandan so'ng, Germaniya fond bozorida etakchi rol Berlin fond birjasiga o'tdi. Bu davrda yuzlab aksiyadorlik jamiyatlari paydo bo'lganligi sababli Germaniya bozorida allaqachon 29 ta savdo maydonchasi faoliyat ko'rsatgan.

O'zbekiston fond bozori. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 8 apreldagi PF-745-son "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan "Toshkent" Respublika fond birjasi tashkil etilgan. Respublikada fond bozori tashkil etilishi va rivojlanishida "Toshkent" Respublika fond birjasi faoliyati muhim ahamiyatga ega. Fond bozori muhim infratuzilmasi bo'lgan ushbu respublika fond birjasida tuzilgan bitimlar soni va ularning hajmini ko'rib chiqish orqali fond bozori rivojlanish tendensiyalarini baholash mumkin:

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, "Toshkent" Respublika fond birjasida 2018-yilda umumiy qiymati 687,3 mlrd so'mlik 13750 ta savdo bitimlari tuzilgan. Shuningdek, 2019-yilda tuzilgan bitimlar soni 138 foizdan oshib, 32816 donani tashkil etgan. Mazkur yilda fond bozori ishtirokchilari tomonidan tuzilgan savdo bitimlari hajmi 438,8 mlrd. so'mdan iborat bo'lgan. Ammo, tuzilgan bitimlar soni tahliliy yildan oldingi davrga nisbatan oshgan bo'lsada, bitimlar hajmi 36,1 foizga kamaygan. Bu o'z navbatida institutsional tuzimalarning fond bozoridagi investitsiya faolligining pasayganligini ko'rsatadi.



1-rasm: "Toshkent" Respublika fond birjasida tuzilmalar bitimlar soni va hajmi haqida ma'lumot

Manba: "Toshkent" Respublika fond birjasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bundan tashqari, 2020-yilda fond birjasi ishtirokchilari tomonidan umumiy qiymati 578,1 mlrd. so'm bo'lgan jami 36062 dona savdo bitimlari tuzilgan. Mazkur ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan, ya'ni savdo bitimlarining umumiy qiymati bo'yicha 31,7 foiz ko'p. Bitimlar soni bo'yicha ham oldingi yilga nisbatan 2020-yildagi bitimlar soni deyarli 10 foizga ko'p ekanligi aniqlandi. Fond birjasi ishtirokchilari tomonidan fond birjasida 71489 dona tuzilgan 2021-yildagi savdo bitimlarining umumiy qiymati 1260,51 mlrd. so'mni tashkil etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston fond bozori infratuzilmasining elementlari o'zaro ta'sirlashishi yo'lidagi to'siqlar ham "vertikal" (infratuzilma elementlari o'rtasida), ham gorizontall (har bir element ichidagi tashkilotlar o'rtasida) bo'ladi. Masalan, O'zbekiston fond bozoridagi bitimlar bo'yicha kliring va hisob-kitob tizimi lokal hisob-kitob-kliring institut-



larining tarqoq to'plamidir. Ularning birlashishi tendensiyasi ob'ektiv asosga ega va O'zbekiston fond infratuzilmasini yanada rivojlantirishning ehtiyojlarini aks ettiradi.

O'zbekistonda fond bozori va uning infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish o'zining ijobiy samarasini beradi:

- fond birjasida ma'lumotlar shaffofligi va oshkoraligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlarni "taqqoslama yillar" kesimida tahlil qilish va uni fond birjasining ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirish maqsadga muvofiqdir;
- O'zbekiston Respublikasining suveren obligatsiyalarini xalqaro fond birjalarida joylashtirishda bukrannerlarni jalb qilishni yanada faollashtirish lozim. Bunda Siti Group (AQSh), J. P. Morgan Shase (AQSh), Societe Generale (Fransiya), VTB Capital (Rossiya) va "Gazprombank" (Rossiya) kabi xalqaro moliya institutlari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish o'zining ijobiy samarasini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Всяких М.В. Совершенствование и развитие инфраструктуры фондового рынка Российской Федерации. Автореферата по ВАК РФ 08.00.10, кандидат экономических наук. 2009.
2. Moorad Choudhry, Didier Joannas, Gino Landuyt, Rod Pienaar, Richard Pereira. Capital market instruments analysis and valuation. 3rd Edition. Palgrave MacMillan 2010. 305 p.
3. Xo'jamurodov A. O'zbekiston fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish: muammolar va yechimlar. "Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2018 yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/19_Khujamurodov.pdf
4. https://www.cbr.ru/finm_infrastructure/
5. В.А.Ипполитов. Мировой фондовый рынок: история развития и современное состояние. РОССИЙСКИЙ внешнеэкономический вестник. –№ 3 (Март) 2006
6. Миркин Я.М. Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития. -М.: Альпина Паблишер, 2002.–578 с. 5.
7. Бутиков И.Л. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане, Автореферат дисс... доктора. экон. наук.–Ташкент, БФА, 2009.
8. Хамидулин М.Б Развитие финансового механизма корпоративного управления, Автореферат дисс... доктора. экон. наук.–Ташкент, БФА, 2009. 6.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.